



TRANSPORT KORXONALARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

**Jabbarov Umarbek Rustambekovich**

i.f.n., Ma'mun universiteti

Rustamov Rustam Umarovich

talaba, Ma'mun universiteti

Annotatsiya: transport korxonalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'rGANilib, ularning buxgalteriya hisobi va auditini tashkil qilishga ta'siri ochib berilgan, daromadlar va xarajatlarni auditorlik tekshiruvining tashkiliy jihatlariga ta'siri o'rGANilgan.

Kalit so'zlar: transport korxonalari faoliyati, transport infratuzilmasi, transport kommunikatsiyalari, transport koridorlari, yuk aylanmasi.

Аннотация: Изучены особенности деятельности транспортных предприятий, выявлено их влияние на организацию бухгалтерского учета и аудита, изучено влияние на организационные аспекты проверки доходов и расходов.

Ключевые слова: деятельность транспортных предприятий, инфраструктура транспорта, транспортные коммуникации, транспортные коридоры, грузооборот.

Abstract: The specific characteristics of the activities of transport enterprises are studied, their impact on the organization of accounting and auditing is revealed, the impact on the organizational aspects of the audit of income and expenses is studied.

Key words: activity of transport enterprises, transport infrastructure, transport communications, transport corridors, a cargo turnover.

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash jarayonlari bilan birgalikda, transport kommunikatsiyasini talablar darajasida tashkil etish masalasi ham muhim o'rIN egallaydi. O'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlab olgan O'zbekiston uchun tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishda transport tizimi faoliyatini tashkil etish, transportning tegishli infratuzilmalar bilan munosabatlarini o'zaro muvofiqlashtirishda transport-ekspeditorlik faoliyatini amalga oshirish ustuvor strategik ahamiyat kasb etadi.

Transport-ekspeditorlik faoliyati mamlakatning logistika infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, uning samarali faoliyati bevosita auditorlik tekshiruvi sifatiga bog'liq. Shu sababli, transport korxonalarida auditorlik tekshiruvini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Statistik tahlil – 2017-2023-yillar davomida yuk tashish hajmining o'zgarish

dinamikasi tahlil qilindi.

- Taqqoslash usuli – buxgalteriya hisobi schyotlari va auditorlik natijalari o'zaro solishtirildi.

- Tizimli yondashuv – auditorlik jarayonining bosqichlari aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar.

2017-2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda transport turlari yuk aylanmasida ro'y bergan o'zgarishlar tahlili mamlakatda yuk tashish aylanmasida sezilarli o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Barcha transport turlarida umumiylukta yuk aylanmasi 2017-yildagi 66,9 mlrd.t/km.dan 2023-yilda 77,1 mlrd.t/km.ga, xususan temiryo'l transportida 22,9 mlrd.t/km.dan 25,2 mlrd.t/km.ga, avtomobil transportida 13,6 mlrd.t/km.dan 27,2 mlrd.t/km.ga, havo transportida 156,9 mln.t/km.dan 332,7 mln.t/km.gacha oshdi.¹

2024-yil 1-yarmida O'zbekiston hududidan qariyb 5,3 mln tonna tranzit yuklari tashilgan, jumladan avtomobil transportida 1,2 mln tonna (22,1%) va temiryo'l transportida 4,1 mln tonna (77,9%).²

Transport xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan.

Jumladan:

- hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog'ini tashkil etish;
- xalqaro yuk tashuvlaridagi transport hujjatlarini ("e-Permit", "e-TIR", "e-CMR") elektron ko'rinishga bosqichma-bosqich o'tkazish;
- mavjud konteyner terminallarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;
- temiryo'lda konteyner tashish ulushini kamida 2 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Umuman aytganda, yuk aylanmasining barqaror o'sishi transport infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish natijasidir. Kelgusida yuk aylanmasini yanada oshirish zamirida raqamlashtirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va tashuvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish yotadi.³

Transport-ekspeditorlik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda auditor korxona faoliyatida ko'proq xatoliklarga yo'l qo'yilgan nuqtalarni topishga harakat qiladi. Buni auditorlik tekshiruvini korxona faoliyatining asosiy qirralarini aks ettiruvchi hisobot shakllarining ko'rsatkichlarini taqqoslashdan boshlaydi.

Bu bosqichning tugallanishi, moliyaviy hisobot shakllarining ko'rsatkichlari auditorga buxgalteriya hisobining qaysi (qaysi schyotlari, qaysi xo'jalik muomalalarida xatoga yo'l qo'yilishi to'g'risida) ma'lumotlariga asosiy e'tiborni qaratishni belgilab beradi. SHundan so'ng auditor tekshiruvning keyingi bosqichini boshlaydi. Bu bosqichda auditor buxgalteriya balansining alohida moddalarini buxgalteriya hisobi schyotlarining qoldiqlari bilan taqqoslaydi. Tekshirishning bu jarayonidagi ma'lumotlar

¹ Прогнозлаштириш ва макроқтисодий тадқиқотлар институти маълумотлари

² Статистика агентлиги маълумотлари

³ Прогнозлаштириш ва макроқтисодий тадқиқотлар институти маълумотлари

ancha maydalashadi. Hisobot shakllarining alohida moddalarida bir nechta buxgalteriya hisobi schyotlarining yig'indisi taqqoslanadi:

Buxgalteriya balansi alohida moddalarining buxgalteriya hisobi schyotlari (bosh kitob) ma'lumotlari bilan taqqoslanishi⁴

t/r	Buxgalteriya balansi moddalarini	Buxgalteriya hisobi schyotlari qoldiqlari
1	Asosiy vositalarning dastlabki qiymati	0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»
2	Asosiy vositalarning eskirishi	0200-«Asosiy vositalarning eski-rishini hisobga oluvchi schyotlar»
3	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	0100 schyotdagи summadan 0200 schyot qoldig'i ayirladi
4	Nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati	0400-«Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar»
5	Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	0500-«Nomoddiy aktivlar amorti-zatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar»
6	Moliyaviy investitsiyalar	0600 «Moliyaviy investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar»

Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi schyotlarining qoldiqlari bilan taqqoslash auditorga quyidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi: Birinchidan, auditor balansning qaysi moddalarini buxgalteriya hisobi schyotlariga mos kelmasligini aniqlaydi. Ikkinchidan, auditor uchun buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlarining buxgalteriya balansi shakllarining alohida moddalarini bilan taqqoslanishi asosiy hisoblanadi va farqlar to'g'risida o'z malakasidan kelib chiqib fikr yuritish hamda bundan ko'zlangan asosiy maqsadni aniqlashga xarakat qiladi. Uchinchidan, auditor tekshirish strategiyasi va taktikasini o'zgartirishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvining uchinchi bosqichida (buxgalteriya balansidan tashqari) moliyaviy hisobot shakllarining ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi schyotlari bilan bog'lanishi taqqoslanadi. Chunki buxgalteriya balansida 21-BHMSdagi, ya'ni «Buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi»dagi 1-8 bo'lim schyotlarining qoldiqlari aks ettiriladi. Qolgan hisobot shakllarida esa xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy faoliyatini tavsiflovchi tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aks ettiradi:

⁴ «АТП Шоҳруҳ» ОАЖ нинг маълумотлари асосида муаллиф томонидан хисобланди

**Hisobot shakllari ko'rsatkichlarining buxgalteriya hisobi
schyotlari bilan o'zaro bog'lanishi tekshirish⁵**

t/r	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari	Buxgalteriya hisobi schyotlari qoldiqlari
1	Mahsulot (ish, xizmat-lar) sotishdan tushum	9000 «Daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar»
2	Sotilgan mahsulotning (ish, xizmat) tannarxi	9100 «Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi» schyoti
3	Ma'muriy xarajatlar	9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyoti
4	Sotish xarajatlari	9410 «Sotish xarajatlar» schyoti
5	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	9500 «Moliyaviy faoliyatning daro-madlarini hisobga oluvchi schyotlar»
6	Yil boshiga bo'lgan asosiy vositalar	0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»ning qoldiqlari
7	Yil oxiriga bo'lgan asosiy vositalar	0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»ning qoldiqlari
8	Uzoq muddatli debtorlik qarzlari	0900 «Uzoq muddatli debtorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar»
9	Joriy debtorlik qarzlar	4010 «Olinadigan hisob-varaqlar» schyoti
10	Uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	7000 «Uzoq muddatli majburiyat-larni hisobga oluvchi schyotlar»
11	Qisqa muddatli kreditorlik qarzlari	6000 «Joriy majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar»

Auditorlik tekshiruvining bu bosqichi «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» va «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot» shakllari ma'lumotlarining buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlariga mos kelishi to'g'risida xulosa qilish imkoniyatini beradi. SHuningdek, auditor jadval ma'lumotlari asosida oldingi bosqichlardagi tekshiruv natijalarining to'g'riliгини yana bir bor tekshiradi. Bu o'z navbatida auditor uchun tekshirishni mukammallashtirib, agar farqlar mavjud bo'lsa, ularni qaysi manba ma'lumotlaridan izlashga yordam beradi.

⁵ «АТП Шоҳруҳ» ОАЖ нинг маълумотлари асосида муаллиф томонидан хисобланди

Tekshirishning to'rtinchi bosqichida auditor buxgalteriya hisobi schyotlarining o'zaro bog'lanishini tekshirishi lozim. Bunda asosiy e'tiborni tekshirishning ikkinchi bosqichi natijalariga qaratishi, ya'ni ma'lumotlari hisobot shakllaridagi ma'lumotlaridan farqlangan schyotlarga qaratishi lozim.

Auditorlik tekshiruvining yuqorida taklif etilgan bosqichlari transport-ekspeditorlik korxonalari faoliyatining mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligini tekshirish imkoniyatini beradi.

Ammo tekshiruvda transport-ekspeditorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda buxgalteriya hisobi schyotlari va dastlabki hisob hamda ishlab chiqarish va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari ma'lumotlari tekshirilishi lozim. Buning uchun daromadlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda eng avvalo daromadlarning tan olinishiga alohida e'tibor qaratish lozim. CHunki transport-ekspeditorlik faoliyatidan olinadigan daromadning asosiy qismi horijiy firmalarga xizmat ko'rsatishdan olinganligi uchun xizmat ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnomada ular xalqaro qoidalardan kelib chiqib belgilanishi mumkin. SHuning uchun ham daromadlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda shartnomalarda belgilangan shartlar qay darajada bajarilishini tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Transport-ekspeditorlik korxonalari faoliyat turlari kengligi ushbu korxonalarning olayotgan daromadlarini tekshirishda ushbu jihatlarini ham e'tiborga olish lozim. Transport-ekspeditorlik korxonalarining faoliyatidan olinadigan daromadlarni tekshirishda ularni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu auditorlik tekshiruvi natijalarining ishonchliligi va aniqligini ta'minlaydi:

Daromadlar auditining ketma-ketligi

Xizmat ko'rsatishdan olingan sof tushumning to'g'rilingini tekshirish

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni tekshirish

Favqulodda daromad (foyda)ni tekshirish

Daromadlarning yakuniy moliyaviy natija schyotiga to'g'ri o'tganligini tekshirish

Tekshirish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish


Ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi bevosita xarajatlar hajmi hamda resurslardan oqilona foydalanishga bog'liq. Korxonadagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan qanchalik samarali foydalanilsa, ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi va qiymati shunchalik past bo'ladi. Bu o'z navbatida korxonaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir qiladi. SHu bois xarajatlar doimiy ravishda nazorat qilib borilishi kerak. Xarajatlar auditni natijasida ichki imkoniyatlar, resurslardan oqilona foydalanish yo'llari aniqlanadi. Auditor xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, tarkibi va ularning turlarini chuqur bilishi kerak.

Xizmat tannarxini audit qilishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- xizmat tannarxiga kiritilgan hom-ashyo va materiallarning to'g'ri baholanishi va hisobga olinishi;
- xizmat tannarxi va qiymatining korxona hisob siyosati va soliq qonunchiligiga mos kelish-kelmasligi;
- xizmat tannarxining to'g'ri hisobga olinishi;
- xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilishi.

Xizmat tannarxi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bevosita bog'liq. Transport-ekspeditorlik faoliyatining hajmi qanchalik oshib boraversa, xizmat tannarxidagi o'zgaruvchan xarajatlarning hissasi ham shunchalik oshib boraveradi. SHuning uchun xizmat tannarxi audit qilinganda korxonaning «biznes-reja»siga, «ishlab chiqarish dasturi»ga, «xarajatlar smetasi»ga, «rejali (haqiqiy) kalkulyasiya»siga alohida e'tibor beriladi. Xizmat tannarxi sarf qilinayotgan hom-ashyo va materallar, ular bo'yicha belgilangan narxlarga bevosita bog'likdir. Auditor hom-ashyolar bo'yicha belgilangan baholarning «FIFO» va «O'rtacha narx» usullariga alohida e'tibor berishi kerak.

Tavsiya etilayotgan ketma-ketlikda o'tkaziladigan xarajatlar auditni natijalari auditorlik hisoboti va xulosasiga kiritiladi:



Xulosa

Xulosa shundayki, transport-ekspeditorlik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning tashkilish-uslubiy asoslari va ularni takomillashtirish masalalari doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijalarida transport-ekspeditorlik faoliyati auditini o'tkazishning vazifalari belgilib olib, audit o'tkazish shakllarini guruhlash, auditini o'tkazishni bosqichlarda tashkil qilish, auditorning ishchi hujjatlari guruhlash, moliyaviy hisobot shakllari ko'rsatkichlarini o'zaro taqqlaslash usuli bilan tekshirish, guruhlash usuli asosida daromadlar va xarajatlar auditining ketma-ketligiga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Transport korxonalari auditorligi samaradorligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Auditorlik jarayonlarini raqamlashtirish – avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini joriy etish.
- Xarajatlarni doimiy monitoring qilish – xizmat tannarxi va sarf-xarajatlarni optimallashtirish.
- Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish – audit jarayonining aniqligini ta'minlash.

Ushbu takliflar auditorlik tekshiruvi samaradorligini oshirib, transport korxonalarining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
2. Toshmamatov N., Kamolov X., Nosirov I., Toshmamatov S. AUDIT: o'quv qo'llanma. – Andijon – 2018.
3. Axmedjanov K.B. Ichki audit. o'quv qo'llanma - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Dusmuratov R.D., Rizaev N.K., Nazarov X.H. Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari / O'quv qo'llanma – T.: 2020.
5. Аудит: учебник для среднего профессионального образования / под общей редакцией Н.А.Казаковой. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Издательство Юрайт, 2019.
6. Штефан М.А., Замотаева О.А., Максимова Н.В. Аудит: учебник и практикум для среднего профессионального образования / под общей редакцией М. А. Штефана. - Москва : Издательство Юрайт, 2019. - 298 с.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

